


## 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.




2020-yil yanvar oyida viloyatimizda 829 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 290 taga kamaygan.

**2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning 2017-2020-yillar kesimida soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra 34 072 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,6 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,3 % savdo, 19,0 % sanoat, 8,7 % qurilish, 7,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,0 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa hamda 24,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Umumiy soni, birlik		01.02.2020 yil	
	01.02.2019 yil	01.02.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>27 351</b>	<b>34 072</b>	<b>124,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 105	2 612	124,1	7,7
Sanoat	5 111	6 461	126,4	19,0
Qurilish	2 420	2 980	123,1	8,7
Savdo	6 342	8 638	136,2	25,3
Tashish va saqlash	878	1 019	116,1	3,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 787	2 649	148,2	7,8
Axborot va aloqa	455	531	116,7	1,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	583	706	121,1	2,1
Boshqa turlari	7 670	8 476	110,5	24,8


Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (10 181 ta), Urgut (2 973 ta), Pastdarg'om (2 867 ta) va Samarqand (2 475 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (771 ta), Paxtachi (857 ta) hamda Nurobod (1 000 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 32 130 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6 016 ta (23,0 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,4 % savdo, 18,9 % sanoat, 8,6 % qurilish, 7,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,0 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa va 25,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9 760 ta), Urgut (2 911 ta), Pastdarg'om (2 671 ta), Samarqand (2 267 ta) va Ishtixon (1 695 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (717 ta), Paxtachi (816 ta) hamda Nurobod (941 ta) tumanlarida esa korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil yanvar oyida 829 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yil shu davriga nisbatan 26,0 foizga kamaygan.

## Yanvar oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (222 ta), Samarqand (93 ta), Urgut (70 ta) va Kattaqo'rg'on (61 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (17 ta), Paxtachi (21 ta) hamda Nurobod (23 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (395 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (120 ta), sanoat (116 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (60 ta), boshqa faoliyat turlari (53 ta), qurilish (49 ta) va sohalarida tashkil etilgan. Eng kamisi esa sog'liqni saqlash va



ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (10 ta), axborot va aloqa (10 ta) hamda tashish va saqlash (16 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Tijorat korxonalari**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra 26 543 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 623 ta, oilaviy korxonalar – 4 565 ta, mas'uliyati

cheklangan jamiyatlar – 15 845 ta, unitar korxonalar – 231 ta, aksiyadorlik jamiyati – 30 ta va boshqalar 249 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2020-yil 1-fevral holatiga ko`ra faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 516 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 108 taga yoki 26,5 % ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2020-yil 1-fevral holatiga ko`ra xorijiy kapital ishtirokida 516 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Samarqand shahri (229 ta), Urgut (41 ta),

Jomboy (40 ta) va Samarqand (37 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Narpay (4 ta), Paxtachi (8 ta) hamda Kattaqo'rg'on (9 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda**




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 365 tasi qo'shma korxonalar, 151 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**


	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>516</b>	<b>365</b>	<b>151</b>
Samarqand sh.	229	145	84
Kattaqo'rg'on sh.	17	14	3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	22	20	2
Bulung'ur	22	9	13
Jomboy	40	34	6
Ishtixon	13	7	6
Kattaqo'rg'on	9	9	-

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonona	Xorijiy korxonona
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>516</b>	<b>365</b>	<b>151</b>
Qo'shrabot	12	4	8
Narpay	4	4	-
Payariq	14	7	7
Pastdarg'om	24	19	5
Paxtachi	8	4	4
Samarqand	37	31	6
Nurobod	11	10	1
Urgut	41	38	3
Tayloq	13	10	3

### **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2020-yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 8 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga kamaygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahar (3 ta yoki jami ulushi 37,5 %), Bulung'ur (2 ta yoki 25,0 %) tumani hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Jomboy, Paxtachi va Urgut (1 ta yoki 12,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


### **2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 2 ta, Rossiya Federatsiyasi - 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2020-yil yanvar oyida Isroil Davlati, Tojikiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (6 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta) va qurilish (1 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### 2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 26 405 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-fevral holatiga qaraganda 27,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8417 tasi (31,9 %) Samarqand shahri, 2433 tasi (9,2 %) Urgut, 2182 tasi (8,3 %) Pastdarg'om, 1977 tasi (7,5 %) Samarqand, 1385 tasi (5,2 %) Ishtixon hamda 1340 tasi (5,1 %) Payariq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiyati ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





- Qo'shrabot ● Paxtachi ● Nurobod ● Kattaqo'rg'on sh. ● Narpay ● Jomboy
- Bulung'ur ● Oqdaryo ● Tayloq ● Kattaqo'rg'on ● Payariq ● Ishtixon
- Samarqand ● Paxtdarg'om ● Urgut ● Samarqand sh.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 26 405 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 8 126 tasi (30,8 %) - savdo, 6 040 tasi (22,9 %) - sanoat, 2 760 tasi (10,5 %) - qurilish, 2 496 tasi (9,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 2 288 tasi (8,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 954 tasi (3,6 %) - tashish va saqlash, 563 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 482 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2 696 tasi (10,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

### **Kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni to'g'risida MA'LUMOT**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


*birlikda*

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	01.02.2020 y.	01.02.2020 y.	2020 yil yanvar
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>28 129</b>	<b>26 405</b>	<b>816</b>
Samarqand sh.	8 746	8 417	214
Kattaqo'rg'on sh.	992	936	26
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1 097	956	30
Bulung'ur	1 004	927	28
Jomboy	990	974	35
Ishtixon	1 484	1 385	37
Kattaqo'rg'on	1 308	1 226	61
Qo'shrabot	540	488	16
Narpay	850	823	34
Payariq	1 527	1 340	42
Pastdarg'om	2 370	2 182	59
Paxtachi	606	579	20
Samarqand	2 171	1 977	92
Nurobod	778	723	23
Urgut	2 489	2 433	69
Tayloq	1 177	1 039	30

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020 - yil  
1- fevral  
holatiga ko'ra

Yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar  
demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot



2020-yil yanvar oyida 816 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 24,0 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (214 ta), Samarqand (92 ta), Urgut (69 ta), Kattaqo'rg'on (61 ta), Pstdarg'om (59 ta) va tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (16 ta), Paxtachi (20 ta), hamda Nurobod (23 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (395 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (120 ta), sanoatda (116 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (60 ta), qurilishda (49 ta), va boshqa turlarida (40 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (10 ta), axborot va aloqada (10 ta) hamda tashish va saqlashda (16 ta) tashkil etilgan.


### **Oilaviy korxonalar**

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-fevral holatiga 4 833 tani tashkil etib, ulardan 4 565 tasi yoki 94,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 71,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim .

### **Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**




**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,6 % yoki 1 399 tasi sanoat,

27,0 % yoki 1 231 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 25,4 % yoki 1 161 tasi savdo, 7,8 % yoki 355 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 0,7 % yoki 31 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 40 tasi qurilish, 0,9 % yoki 40 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 13 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 6,4 % yoki 295 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko`rsak, eng ko`pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to`g`ri keladi.


**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>263</b>	<b>100</b>
Samarqand sh.	36	13,7
Kattaqo'rg'on sh.	7	2,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	10	3,8
Bulung'ur	8	3,0
Jomboy	16	6,1
Ishtixon	5	1,9
Kattaqo'rg'on	28	10,6
Qo'shrabot	2	0,8
Narpay	18	6,8
Payariq	26	9,9
Pastdarg'om	23	8,7
Paxtachi	2	0,8
Samarqand	60	22,8
Nurobod		
Urgut	10	3,8

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
Tayloq	12	4,6

2020-yil yanvar oyida 263 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,1 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand tumani (60 ta), Samarqand shahar (36 ta), Kattaqo'rg'on (28 ta) va Payariq tumanlari (26 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (2 ta) va Paxtachi tumanlarida (2 ta) tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, birlikda**





Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 53,6 % yoki 141 tasi savdo, 23,6 % yoki 62 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 15,2 % yoki 40 tasi sanoat, 4,6 % yoki 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 3,0 % yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### **Statistik ko'rsatkichlarga izohlar**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-malumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar



Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

**KTYADR** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga asosan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.



**Samarqand viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:71-230-85-42 (43)**